

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## ALISHER NAVOIY IJODINING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA O‘RGANILISHI

(Ozarbayjon, Turkmaniston, Usmonlilar davlati misolida)

**Durdona Omonova,**  
*TDPU talabasi*

**Ilmiy rahbar: Mubora Omonova,**  
*TDPU dotsenti*

*Annontatsiya.* Ushbu maqolada Alisher Navoiyning Ozarbayjon, Turkmaniston, Usmonli Turklar davlati adabiy muhitiga o‘tkazgan ta’siri, davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga oid xalq hikoyalari, shoir ijodining turkiy xalqlar adabiyotida o‘rganilishi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar :** *Ixlosiya madrasasi, adabiy kechalar, Fuzuliy, g‘azallar, turkman adabiyoti, xalq hikoyalari, vaqf mulklari, maktublari, ijodiy faoliyati.*

Buyuk davlat va san’at arbobi Alisher Navoiyning turkiy davlatlar adabiyotiga ta’siri keng miqyosda va turli kategoriyalar asosida o‘rganilmoqda. Jamiyatda hukmron tabaqa vakillari orasida bo‘lishiga qaramay qalbi, butun ruhi xalq qalbi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan shoir insonlarga naf keltiradigan turli janrlarda asarlar yaratadi. Yozgan asarlari orqali ommani san’atga, madaniyatga, adabiyotga bo‘lgan ixlosini yanada oshirishga xizmat qiladi. Asarlarining forsiy emas turkiy tilda yozilganligi oddiy aholi bilan birgalikda yuqori tabaqa vakillari orasida shuhrat topishiga sabab bo‘ladi. Darhaqiqat, davlat tili turkiy til bo‘lgan bir paytda deyarli barcha ijodkorlar forsiyda asarlar yozdilar. Forsiy til barcha uchun birdek tushunarli bo‘lmay, san’at va adabiyotda ijodkorlar bu tillarda asarlar yaratadilar.

Turkiy davlatlar xususan, Turkmaniston, Ozarbayjon va O‘zbekistonda Navoiy g‘azallari baxshilar tomonidan kuylangan. Xalqning unga nisbatan mehr-muhabbati shu qadar kuchli bo‘lganki, hayotligidayoq u haqida turli xalq hikoyalari yaratilgan. Bu hikoyalarda Navoiyning zukkoligi, chaqqonligi, ziyrakligi, uzoqni ko‘ra bilishi bir so‘z bilan aytganda barcha yaxshi fazilatlari tasvirlangan. Xurosondan Xitoygacha bo‘lgan hududlarni turkiy til qilichi bilan zabt etgan shoirning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’siri turli tasniflarga ko‘ra o‘rganilib kelinmoqda.

Jumladan, Alisher Navoiyning Ozarbayjon madaniy hayotiga ta’siri hayotligida boshlangan. XV-XVII asr ilm –fan va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Hirotda bunyod etilgan Unsiya, Ixlosiya madrasalarida talabalarga diniy va dunyoviy ilmlar bilan birga san’at va adabiyotdan ta’lim berilgan. Dunyoning turli mintaqalaridan kelgan talabalarga Navoiy she’r ilmi va aruzdan saboq bergan. Shoir boshchiligida talabalar uchun turli majlislar tashkil qilingan. Shuningdek, Shimoliy Ozarbayjon hududlarida hukmronlik qilgan Oqquyunlilar hukmdori Uzun Hasan Navoiy ijodiga kata qiziqish bilan qaragan. Shoh o‘z atrofiga jamlagan ilm ahli, shoirlar bilan birga

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

saroyda adabiy kechalar tashkil qilinadi. Bu kechalarda Navoiy ijodidan namunalar keltirilib, uning ijodiga xos bo‘lgan xususiyatlar haqida fikr mulohazalar aytilgan.

Alisher Navoiyning Ozarbayjon adabiyotiga ta’siri Kishvari, Latifiy, Fuzuliy kabi shoirlar ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, Fuzuliy Navoiyning haqiqiy ixlosmandi bo‘lgan. Ijodida Navoiydan o‘rnak oladi. Navoiy ijodini o‘rganibgina qolmay, uning an‘analarini davom ettiradi. Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonining yaratilishi uning Navoiy ijodidan atroflicha xabardor bo‘lganligining tasdig‘i desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fitrat, Ko‘pruluzoda, Ali Nihat Tarkat singari turkolog olimlar Fuzuliy ijodida Navoiyning ta’sirini dalillar asosida asoslab beradilar.

O‘tgan asrning 50-yillarida Alisher Navoiy yubileyini nishonlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan so‘ng Turkman folklorshunoslari tomonidan “Mirali” nomli hikoyalar to‘plami tuzuladi.<sup>1</sup> Bu asarda Alisher Navoiyning xalq manfaatlarini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘ygan davlat arbobi sifatida namoyon qilivchi turli xalq hikoyalarini uchratishimiz mumkin. Bu hikoyalarda shoirning bolaligi, Husayn Boyqaro bilan o‘zaro munosabatlari yoritilib boradi. Jumladan “Gul va Sulton” nomli hikoyada Husayn Boyqaroning g‘azab ustida yanglish qarorlar bergani, Navoiyning aql va sog‘lom fikr bilan harakat qilib hukmdorning xatolarini bartaraf qilganligini guvohi bo‘lamiz. Bu hikoyadan anglashilganidek, turkmanlar Navoiyni bir donishmand sifatida ulug‘laydilar.

Navoiyning davlat arbobi sifatida Xurosonda ko‘plab xayriya muassasalari bunyod ettirgani ma’lum. “Vaqfiya” asarida bu ishlarning hisobi haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan. “Qayerga sarflaysiz” nomli ertakda Podsho tomonidan har oyda olti yuz oltin tanga berishiga qaramasdan Navoiyning kamtarona hayot kechirayotganini ko‘radi. Husayn boyqaro Navoiyning bu pullarni qayerga sarflayotganiga hayron qoladi. Tez orada bu pullarni nogironlar va ko‘zi ojizlar uchun sarflayotganligini xabarini olgan Husayn Boyqaro Navoiyga nogironlar, ko‘zi ojizlar uchun uy bunyod ettirishga vada beradi.<sup>2</sup>

Navoiy XV-XVI asr klassik turk adabiyotiga eng kata ta’sir o‘tkazgan ijodkorlarga biridir. XVI asr Usmonli turk adabiyotida uning tazkiralari juda mashhur bo‘lgan. Bu davr Usmonli turk adabiyotida Navoiy uslubini o‘zlashirgan shoirlar, shoir bilan bevosita yozishmalar olib brogan ijodkorlar haqida ma’lumotlar

---

<sup>1</sup>Muhterem Saygin. Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tahlili dok.diss.Denizli 2022

<sup>2</sup> Muhterem Saygin. Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tahlili dok.diss.Denizli 2022

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

uchraydi. Naviy bilan uchrashish sharafiga muyassar bo‘lgan Basriy, Latifiy, Kinalizoda kabi shoirlar uning devoni va masnaviylarini usmonli turk adabiyotiga kirib kelishini ta’minlagan. Shuningdek Chalabiy xotiralar kitobida Navoiyning Usmonlilar vaziri Mahmud posho bilan maktublar yozishganligi va ba’zi shoirlarning Navoiy g‘azallariga nazira yozganliklarini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy Turkiy xalqlar adabiyotida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan davlat arbobi, fanning turli sohalariga oid asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasini boyitgan olim va dunyoni qalam kuchi bilan bo‘ysindira olgan buyuk shoirdir. Sharq xalqlari adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan asarlarining ma’no mazmuni, mohiyati va falsafiyligini o‘rganish mana besh asrdiki davom etib kelmoqda. Shoirning adabiy faoliyati va ijodiy merosi hayotligidayoq o‘rganilishi zamondoshlari orasida kata hurmat va e’tibor qozonganligidan dalolat beradi. Nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti balki G‘arb adabiyotida ham Alisher Navoiy shaxsiyati va ilmiy asarlarining yangicha yondashuvlar, tamoillar asosida o‘rganish va tahlil qilinishi shoir ijodiga nisbatan qiziqishni ortib borayotganligining yaqqol dalilidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 12-tom. – T.: Fan, 1997.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 13-tom. – T.: Fan, 1997.
3. Muhterem Saygin. Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tahlili dok.diss. Denizli-2022
4. Sirojiddinov Sh, Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018.
5. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – T.: Adabiyot va san’at-1985
6. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
7. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
8. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
9. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
10. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
11. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence // *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).